

Sh.Z.Davlatova

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti “Tashqi siyosat va Xalqaro iqtisodiy aloqalar instituti”
fakulteti “Xalqaro munosabatlar” yo`nalishi 2- bosqich arab-ingliz gruh talabasi.*

Email: davlatovashodiyona@gmail.com

O'ZBEKISTONDA DIPLOMATIYANING SHAKILLANISH TARIXI VA TASHQI SIYOSATDAGI O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: bugungi maqolamizda g'arb mamlakatlarida nihoyatda shakillanib ulgurgan diplomatiya sohasi bugungi kunda mamlakatimizda qay darajada va qachondan boshlab faoliyat yuritayotganligi va diplomatiyaning tashqi siyosatdagi o'rni haqida yoritamiz.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Sobiq Ittifoq, Diplomatik aloqalar, MDH, Birlashgan Millatlar tashkiloti

Diplomatiya davlatlarning tashqi siyosatini amalga oshirish vositasi bo'lib, u hal etilayotgan vazifalarning o'ziga xos shartlari va xarakterini hisobga olgan holda qo'llaniladigan amaliy faoliyat, uslub va usullar majmui hisoblanadi. Mojarolarning oldini olish yoki hal qilish uchun muzokaralar san'ati bu diplomatiya. Davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlar o'rnatishga intilishini ta'minlovchi vosita hamdir. Diplomatiya xalqaro munosabatlarda muhim rol o'ynaydi va davlatlar o'rtasida muzokaralar olib borish va munosabatlarni o'rnatish jarayonlarida bevosita ishtirok etadigan bo'lim.

Diplomatiyaning quidagicha turlari mavjud va ularning har biri davlat siyosatida muhim rol o'ynaydi:

1. tinchlikni taminlash siyosati diplomatiyasi
2. Kanoner diplomatiyasi
3. Shuttle diplomatiyasi
4. Fuqaro diplomatiyasi
5. Dollar diplomatiyasi
6. Jamoat diplomatiyasi
7. Xalq diplomatiyasi
8. Iqtisodiy diplomatiya
9. Raqamli diplomatiya

Tarixdan xonliklar davri va undan oldin ham yurtimiz hududida madaniy savdo va faol tashqi siyosiy aloqalar yaxshi rivojlanib kelgan. Bu jarayon, ayniqsa, buyuk davlat arbobi, Sohibqiron Amir Temur davrida rivoj topgan. Amir Temur o'z davrining eng qudratli davlatlaridan birining asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi bo'lish bilan bir qatorda, o'z vaqtida Yevropa va Osiyo qit'alarida ro'y bergan tarixiy o'zgarishlarga hal qiluvchi ta'sir o'tkazib, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan mohir diplomat ham bo'lgan. Xorijiy davlatlarning hukmdorlari bilan olib borgan yozishmalarida, diplomatik xatlarida sharq diplomatiyasiga xos etiketning yaqqol sezilib turishi, mamlakatlar o'rtasidagi sovuqchilik va muammolarni tinch yo'l bilan oqilona hal qilishga intilishi Amir Temur tashqi siyosatining o'ziga xosligidan dalolatdir. Shuning uchun ham Temuriylar davri diplomatiyasi o'tmishdagi xalqaro munosabatlarning eng yorqin sahifalardan biri hisoblanadi. Amir Temur bundan olti asr avvaloq xorijiy davlatlar bilan tashqi aloqalar o'rnatmay turib, mamlakatning istiqbolga erishib bo'lmashligini teran anglagan edi. Angliya, Fransiya, Usmonli Turklar, Ispaniya, Xitoy, Hindiston kabi turli mamlakat hukmdorlari bilan amalga oshirgan yozishmalari va diplomatik aloqalari buning yaqqol tasdig'idir. Diplomatiya tushunchasi bir qarashda zamonaviy tuyulsada qadimdan mamlakatlar bilan siyosiy diplomatic aloqalar shakillanib kelgan.

O'zbek davlatchiligi tarixida tashqi aloqalarga oid bo'lgan diplomatik hamkorliklar, yozishmalar, hukmdorlarning o'z davrida olib borgan faol tashqi siyosatlari aks etgan qimmatli ma'lumotlar bilan bir qatorda bu sohaning o'rganilmagan, ochilmagan qirralari o'z tadqiqotchilarini hamon kutmoqda, sababi yurtimizda qanchadan qancha Amir Temur kabi diplomatlar yetishib chiqqan bo'lsada ularning hayoti batafsil o'rganilmagan. Bu borada batafsil to'xtalib kitob yozilishi lozimligini Prizidentimiz Sh.Mirziyoyev takidlab o'tgan bo'lsada bu biroz vaqt olmoqda.

Davlatchiligimiz tarixining mustamlakachilik bosqichi-sovet davrida sovet-kommunistik mafkurasi xalqimizni turli millatlar bilan o'zaro aloqalar olib borishiga, madaniyatlar almashinuvi orqali xalqaro siyosiy maydonda o'z o'rnini topishga imkon bermagan. O'zbekiston SSRning 1978-yilda qabul qilingan Konstitutsiyasida boshqa mamlakatlar xalqlari bilan do'stlik va hamkorlikning rivojlanishida va jahonda tinchlikni mustahkamlashda yordamlashishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Ammo xalqaro aloqalar faqat Moskvaning ruxsati va qat'iy nazorati ostida bo'lgan. Shunga qaramay Osiyo xalqlarining madaniy aloqalarida, jumladan, xalqaro ko'rgazmalar tashkil etishda, teatr va kino sohasini targ'ib qilishda, san'at va adabiyot haftaliklarini joriy qilishda O'zbekiston muhim rol o'ynagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunda "Chet mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy aloqalar O'zbekiston jamiyati" deb nomlangan ommaviy-ko'ngilli jamoat tashkilotining faoliyatiga doir bir qancha ma'lumotlar fikrimizning isbotidir. Mazkur jamiyatning dunyo mamlakatlari bilan 12 ta hamkorlik tashkiloti faoliyat ko'rsatib, unda Osiyo mintaqasiga kiruvchi 10 dan ortiq bo'limlar mavjud bo'lgan

O'zbekiston mustaqillikka erishgach mustaqil davlat sifatida ilk xalqaro munosabatlarni 1991-yildan boshlagan. 1991-yil Ozbekiston MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) ga asoschi sifatida qoshildi va shu orqali ilgari Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan davlatlar bilan aloqalarini saqlab qoldi. 1992-yili 2-martda esa Birlashgan Millatlar tashkilotiga azo bo'ldi. Birlashgan Millatlar tashkilotiga azo bo'lish Jahon hamjamiyatida O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida tan olinishi uchun muhim qadamlardan biri edi.

Ma'lumki, bugungi kunda BMT o'z faoliyati mohiyatiga ko'ra dunyoda eng yirik va universal tashkilot bo'lib, uning o'rnini bosa oladigan boshqa birorta xalqaro tizim mavjud emas. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta'kidlanganidek, "ushbu tashkilotga a'zo bo'lish mamlakatimizga tinchlik, taraqqiyot va hamkorlik masalalarini global darajada ilgari surish, zamonamizning qator eng murakkab xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik muammolarini hal qilish jarayonida faol ishtirok etish imkonini berdi".

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari boshchiligida olib borilayotgan faol va ochiq tashqi siyosat natijasida O'zbekiston va BMT o'rtasida o'zaro hamkorlik munosabatlari yangi pog'onaga ko'tarildi.

O'zbekiston bugungi kunda dunyoning ko'plab yetakchi davlatlari bilan diplomatic aloqalarni rivojlantirgan bo'lib, quida uning asosiy hamkor davlatlari bilan tanishamiz.

Qayd etilishicha, O'zbekistonning tashqi savdodagi eng asosiy hamkori — Xitoy. Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 7,5 milliard dollarga teng. Yuqori uchlikdan Rossiya va Qozog'iston ham o'rin egallagan.

To'liq ro'yxat quyida:

- Xitoy – 7,5 milliard dollar;
- Rossiya – 7,4 milliard dollar;
- Qozog'iston – 3,7 milliard dollar;
- Turkiya – 2,7 milliard dollar;
- Koreya – 1,9 milliard dollar;

- Qirg‘iz R. – 990 million dollar;
- Germaniya – 870 million dollar;
- Turkmaniston – 614 million dollar;
- Afg‘oniston – 586,5 million dollar;
- Hindiston – 559 million dollar.

O‘zbekiston bugun dunyoning yetakchi mamlakatlari bilan diplomatic aloqalarga ega va jahon hamjamiyatida o‘z o‘rni mavjud. Mustaqillikdan so‘ng birinchi prezidentimiz va amaldagi prezidentimiz SH.Mirziyoyevning bu boradagi ishlab chiqilgan strategiya va amallari o‘z samarasini ko‘rsatib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дипломатия: история, принципы и роль в международных
<https://znanierussia.ru/articles/%D0%94%D0%B8%D0%BF%D0%BB%D0%BE%D0%BC%D0%B0%D1%82%D0%B8%D1%8F#:~:text=%D0%94%D0%B8%D0%BF%D0%BB%D0%BE%D0%BC%D0%B0%CC%81%D1%82%D0%B8%D1%8F%20%E2%80%94%D1%81%D1%80%D0%B5%D0%B4%D1%81%D1%82%D0%B2%D0%BE%20%D0%BE%D1%81%D1%83%D1%89%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%B2%D0%BB%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F%20%D0%B2%D0%BD%D0%B5%D1%88%D0%BD%D0%B5%D0%B9%20%D0%BF%D0%BE%D0%BB%D0%B8%D1%82%D0%B8%D0%BA%D0%B8,%D0%B4%D0%BB%D1%8F%20%D0%BF%D1%80%D0%B5%D0%B4%D0%BE%D1%82%D0%B2%D1%80%D0%B0%D1%89%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F%20%D0%B8%D0%BB%D0%B8%20%D1%83%D1%80%D0%B5%D0%B3%D1%83%D0%BB%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D1%8F%20%D0%BA%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%BB%D0%B8%D0%BA%D1%82%D0%BE%D0%B2>
2. What is Diplomacy?
https://www-cyber--diplomacy--toolbox-com.translate.googleusercontent.com/translate/Diplomacy.html?_x_tr_sl=en&_x_tr_tl=ru&_x_tr hl=ru&_x_tr_pto=rq#:~:text=Diplomacy%20is%20the%20art%2C%20the,relations%2C%20while%20maintaining%20peaceful%20relationships
3. O‘ZBEKISTON DIPLOMATIYASINING TARIXI VA ISTIQBOLLARI
<https://cyberleninka.ru/article/n/ozbekiston-diplomatiyasining-tarixi-va-istiqbollari>
4. O‘zbek davlatchiligi diplomatiyasining tarixi va buguni
https://www.researchgate.net/publication/369916642_O'zbek_davlatchiligi_diplomatiyasining_tarixi_va_buguni
5. <https://namangan.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=55709>
6. <https://daryo.uz/2022/11/19/ozbekistonning-tashqi-savdodagi-top-10-hamkor-davlatlari-malum-boldi>